


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70811201 – Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Toshkent -2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi	4
1.2.1.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qoyiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya	8
2.3.2.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. 70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70811201 – *Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi- qishloq xo‘jaligi ekinlari mahsuloti hosildorligi va sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bilan qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi tarmoqlarida fan va ishlab chiqarish; shu ekinlar bilan ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish; o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarda maxsus fanlarni o‘qitishni qamrab oladi.

1.2.2. 70811201 – Seleksiya va urug‘chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

- dala ekinlari va ularning navlari;

- laboratoriya, lizimetrik, vegetatsion va dala tajribalari;

- donli ekinlar

- meva-sabzavot ekinlari

- urug‘lar;

- seleksiya jarayoni;

- noan‘anaviy o‘simliklar introduksiyasi;

- urug'chilik tizimi;
- urug'lik ekinzorlar va urug'chilik jarayoni;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari va o'quv tizimlari;
- fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- seleksiya va urug'chilik sohasida ixtisoslikka mos mavzular va loyihalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- fermer xo'jaliklari, agroklastlar va boshqa shakldagi mulk va xo'jalik yuritish subyektlaridagi ishlab chiqarish jarayonlari;
- seleksiya va urug'chilik sohasidagi ishlab chiqarish faoliyati va uning sifati bo'yicha davlat va hududiy boshqaruvi va nazorati;
- davlat boshqaruvi va uning turli hududiy bo'linmalarida boshqaruv va nazorat jarayonlari.

1.2.3. 70811201 – Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- xizmat ko'rsatish;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. 70811201 – Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

- 70811201 – Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish, qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligining progressiv texnologiyalarini tatbiq etish;
- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligining eksperimental izlanish ishlarini namunaviy uslubiyatga asosan mustaqil o'tkazish va ulardan olingan natijalarga ishlov berishi;
- olingan natijalar bo'yicha ilmiy hisobotlar tayyorlash;
- qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini yaratish va sinash usullarini ishlab chiqish;
- ilmiy ishlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi sohasida o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhlarini ishlab chiqishi, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etishi va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy-ishlab chiqarish matbuotlariga maqolalar tayyorlashi;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etishi;
- innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy – boshqaruv hamda ishlab chiqarish-texnologik va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini yetishtirish agrotexnologiyalaridan foydalanish;
- fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini yetishtirish texnologiyalarini tashkil etish;
- qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlaridan foydalanishni asoslash;
- qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish;
- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;
- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotadbirlarni bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- seleksiya va urug'chilik sohasi bo'yicha xizmat ko'rsatishda me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish va servis xizmatini ko'rsatish;
- donli ekinlarining yangi navlarini joriy qilish bo'yicha maslahat berish;
- donli ekinlar urug'chiligida urug'larni ko'paytirish usullaridan foydalanish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. 70811201 – Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion-modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish.
- ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tatbiq etishni bilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarni rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni bilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni bilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy faoliyat – ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy-pedagogik ishini olib borish va ilmiy amaliy tajribalar orttirish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: seleksioner, urug'chi, tadqiqotchi - pedagog

2.3.2. 70811201 – Seleksiya va urug'chilik (*donli ekinlar*) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70811201 – Seleksiya va urug'chilik (*donli ekinlar*) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM2440	Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1204	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	SUITUM1104	Seleksiya va urug'chilikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	DESGAM1106	Donli ekinlar seleksiyasining genetik asoslari	180	6	1
1.05	DESUNUM1206	Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida noan'anaviy usullar	180	6	2
1.06	DESNITM2304	Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida innovatsion texnologiyalar	120	4	3
1.07	DENNYAM2306	Donli ekinlar navshunosligi va nav yangilash	180	6	3
1.08	DEUIAM2306	Donli ekinlar urug'chiligining ilmiy asoslari	180	6	3
1.09	DESDNSM1106	Donli ekinlar seleksiyasida Davlat nav sinovi	180	6	1
2.00	TFM2414	Tanlov fanlari	420	14	2,3

		Jami:	1800	60	
3.00	IF2460	Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITIMD2436	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1.2.3.4
3.02	IPI2412	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1.2.3
3.03	IATO2412	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 631.5.633.1

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, seleksiya, urug'chilik, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malakaviy amaliyotlar, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, sifatni baholash va nazorati, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mazmun, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqotlar jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor

K. Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O'.



O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Direktori

S. Aliqulov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.




Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori

E. Ravshanov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.




Toshkent viloyati Buka tumani
"ARK BUKA" MChJ

Direktori

A. Dushaboyev

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



Toshkent davlat agrar universiteti
70811200—Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor. S.Ya.Islamov, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti direktori A.Ravshanov, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori S.Aliqulov, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70811200—Seleksiya va urug'chilik (donli ekinlar) magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori



A.Ravshanov

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori




S.Aliqulov

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori, professor



K.Komilov

Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor



S.Islamov